



CHINGIZ AYTMATOVNING “SARVIQOMAT DILBARIM” ASARIDAGI O‘YLANMAY QILINGAN XATONING BADALI

**Omonova Dilafruz
Sharofiddin qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zMPU talabasi

Mubora Omonova

Ilmiy rahbari: dotsent, fil.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola Qirg‘iston xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning eng mashhur qissalaridan biri “Sarviqomat dilbarim” asaridagi o‘ylanmay qilingan xatoning badaligacha bo‘lgan voqealar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, qissa, Chingiz Aytmatov, badal, xato, Ilyos, Asal, Hadicha, Boytemir, dovon, ovul.

Аннотация: В данной статье рассматриваются события, приведшие к последствиям необдуманной ошибки в одном из самых известных рассказов киргизского народного писателя Чингиза Айтматова “Сарвикамат дилбарим”.

Ключевые слова: Илья, Asal, Хадича, Бойтемир, перевал, деревня.

Mashhur qirg‘iz yozuvchisi, davlat va jamoat arbobi, diplomat Chingiz Aytmatov ko‘plab asarlari qatorida “Sarviqomat dilbarim” qissasida ham tom ma‘noda hayotiy-maishiy haqiqat va muammolar tasvirlanadi. Har bir qahramonning o‘ziga xos fe‘l-atvori hozirgi kunda ham zamondoshlarimizning qaysidir birlarida takrorlanadi. Eng asosiy jihatlaridan biri shundan iboratki, ushbu qissani o‘qishga kirishgan har bir kitobxon mutolaa davomida kitobda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlardan to detallargacha befarq bo‘la olmaydi. Boisi shundaki, “Sarviqomat dilbarim” asari hayotimizdagi inson taqdirleri bilan chambarchas bog‘liq tarzda yaratilgan nodir asar hisoblanadi.

Darhaqiqat, mazkur asar inson hayoti bilan har taraflama bog‘liq hisoblanadi. Qissaning bosh qahramonlari Ilyos hamda Asal hisoblanadi. Asar davomida ikki yosh qalbning tasodifan ovulda tanishib, urf-odatlariga qarshi chiqqan holda turmush qurishi va boshidan kechirgan sinovli onlar haqida atroflicha mushohada etiladi.

Dastavval, Ilyos xizmat safari chog‘ida mashinasi buzulib qolgan vaqtda Asalni uchratib qoladi, kiyinishlari qarilarga xos bo‘lsa-da, o‘zi latofatli qiz bo‘ladi. Uni bir ko‘rishda yoqtirib qoladi. Yuragi unga talpinib, ko‘rmasa, tura olmaslik darajasiga boradi. Avvallari ovulga kelishni rad etib, majburligidan kelayotgan Ilyos ushbu lahzalardan so‘ng yo‘nalishi boshqa hududga biriktirilgan bo‘lsa-da, bir yo‘lini topib ovulga qatnaydi. Shu orada ikki qalb bir-biri bilan munosabat o‘rnatadi. Shu vaqtgacha

Asallarda qarindoshiga qiz berish odati shakllangan edi. Shu sababli uni ham unashtirib qo'yishmoqchi bo'ladi. Lekin Asal urf-odatlariga qarshi chiqqan holda ota-onasining rozilgisiz sevgan insoni, Ilyos bilan qochib ketadi.

Ular turmush qurishadi, uyi yo'qligi sababli Ilyosning do'sti Alibek ularga o'z uyini bo'shatib beradi. Ikki yosh baxtli yashar edi, biroq bu baxti davomli bo'lmaydi. Orada o'g'il farzandli bo'ladi. Ismini Samad qo'yishadi. Ishxonasida Ilyosni dispecher qiz Hadicha yoqtirar edi. Ilyos dovondan yuk mashinasini shatakka olib o'tmoqchi bo'ladi. Katta tavakkal bilan hech kimni ruxsatisiz yo'lga chiqadi, ammo bu ishi manfaatli bo'lmaydi. Bir qancha yuklar havoga uchadi. Mazkur voqeadan keyin Ilyos vijdon azobida yurib, Asalga ham e'tibor bermasdan, qattiq muomala qiladi. Asl tugun shu yerdan boshlanadi. Vaziyatdan foydalanib, Hadicha uni asta-sekin yo'ldan ura boshlaydi. U Ilyos bilan birga Qirg'izistonga ketadi. Bir necha yil o'tib, turmushi o'xshamasdan, Ovulga yana qaytadi, Ilyos rosa Hadichani izlaydi, uyiga borganida esa uni qayta turmushga chiqib ketganligidan xabar topadi. Afsuski, Ilyos Hadicha bilan ketgan vaqtlarda Asal qanchalik qiynalganligini, uni kuta-kuta noiloj taqdirga tan berib, turmushga chiqqanini bilmas edi.

Bir kun Ilyos dovonda jarohatlanganida, Bektemir unga yordam berish niyatida uyiga olib boradi, o'sha vaqtda uzoq kutilgan, ammo keskin vaziyatga duch keladi. Bu holatni esa kulminatsiya desak, yanglishmagan bo'lamiz. Ilyos ne ko'z bilan qarasaki, Bektemirning ayoli Asal boladi. Farzandi Samad esa baxtga qarshi Bektemirni dadasi deb bilardi. O'sha kuni tunda Bektemir, Ilyos hamda Asal mijja qoqmadi. Ular turlicha xayollar bilan band edi. Ilyos Samadga mehr qo'ygani qancha urinmasin, afsuski, endi kech edi.

Barcha voqealarni ko'rib, guvoh bo'lgan Ilyos chorasizlikdan o'z yo'lida davom etadi. Kasbini davom ettiradi.

Ushbu qissa o'z nomi bilan aytganda sarvqomatli, vafodor qizning qadriga yetmay, xiyonat yo'liga kirgan hamda vaqt o'tib, oilasini izlab topganda, ming yoqtirsa ham, Asal yangi oilasiga sadoqatini tark etmagan holda hayotida davom etadi. Mazkur holat Ilyosga qattiq dars beradi hamda qilingan birgina xatosining badalini butun umr to'lab, ichki konfliktda, vijdon azobida yashashga majbur boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov, Chingiz. Sarvqomat dilbarim. [Matn] : / Chingiz Aytmatov – T.: “O‘zbekiston milliy. Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. Oqil Abdubarnoyev. <https://jadid.uz/chingiz-aytmatovning-sarvqomat-dilbarim-qissasidan-iqtiboslar/>
3. Чингиз Айтматовнинг “Сарвқомат дилбарим” кассасининг кино ва театрлардаги талқини. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 47 (285). — С. 477-480. — URL: <https://moluch.ru/archive/285/64132>.